



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(2)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 166 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abduvaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	



O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-diagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	154
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	158
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	



3-4 YOSHLI BOLALARDA NUTQNING GRAMMATIK TUZILISHINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLINGVISTIK ASOSLARI

Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi

University of Business and Science,

Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va sport faoliyati kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada 3–4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinib, tadqiqot jarayonida bolaning grammatik kompetensiyasi rivojlanishining psixologik, lingvistik va pedagogik mexanizmlari o'rganilgan hamda grammatik nutq shakllanishiga ta'sir etuvchi biologik, ijtimoiy va kommunikativ omillar ilmiy asoslangan. Shuningdek, xorijiy va milliy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, bolaning tafakkuri, verbal xotirasi, fonematik eshituv qobiliyati va kommunikativ ehtiyojining grammatik nutq rivojiga ta'siri yoritilgan. Maqolada grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirishda dialogik muloqot, o'yin texnologiyalari, oilaviy nutq muhiti hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: grammatik kompetensiya, psixolingvistika, nutq rivoji, maktabgacha ta'lim, kommunikativ faoliyat, dialogik nutq, verbal tafakkur, til tizimi, lingvistik rivojlanish, grammatik kategoriya.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the psycholinguistic foundations of forming the grammatical structure of speech in children aged 3–4 years. The study examines the psychological, linguistic, and pedagogical mechanisms underlying the development of children's grammatical competence and substantiates the biological, social, and communicative factors influencing the formation of grammatical speech. In addition, a comparative analysis of the scientific views of foreign and national scholars is presented, highlighting the influence of children's thinking, verbal memory, phonemic hearing, and communicative needs on the development of grammatical speech. The article also analyzes the scientific and pedagogical potential of dialogic communication, play-based technologies, the family language environment, and modern pedagogical approaches in the formation of grammatically correct speech.

Key words: grammatical competence, psycholinguistics, speech development, preschool education, communicative activity, dialogic speech, verbal thinking, language system, linguistic development, grammatical category.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы психолингвистические основы формирования грамматического строя речи у детей 3–4 лет. В ходе исследования изучены психологические, лингвистические и педагогические механизмы развития грамматической компетенции ребёнка, а также научно обоснованы биологические, социальные и коммуникативные факторы, влияющие на формирование грамматической речи. Наряду с этим проведён сравнительный анализ научных взглядов зарубежных и отечественных исследователей, раскрыто влияние мышления ребёнка, вербальной памяти, фонематического слуха и коммуникативной потребности на развитие грамматической речи. В статье также проанализированы научно-педагогические возможности диалогического общения, игровых технологий, семейной речевой среды и современных педагогических подходов в формировании грамматически правильной речи.

Ключевые слова: грамматическая компетенция, психолингвистика, развитие речи, дошкольное образование, коммуникативная деятельность, диалогическая речь, вербальное мышление, языковая система, лингвистическое развитие, грамматическая категория.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari jadallashib borayotgan davrda inson kapitalini rivojlantirish masalasi barcha ta'lim bosqichlarida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning intellektual, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki aynan maktabgacha yosh davrida bolaning psixik rivojlanishi eng faol bosqichga kirib, uning tafakkuri, xotirasi, idroki, emotsional barqarorligi va til faoliyati intensiv ravishda shakllanadi. Ushbu davrda nutqning rivojlanishi bolaning keyingi ta'lim faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy kamoloti uchun fundamental asos vazifasini bajaradi.

Ilk bolalik davrida tilni egallash jarayoni oddiy kommunikativ ehtiyoj bilan cheklanib qolmay, bolaning atrof-muhitni bilishi, voqelikni idrok etishi hamda tafakkur operatsiyalarining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda kechadi. Bola nutq yordamida predmet va hodisalarni nomlaydi, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni anglaydi, o'z hissiyotlari va ehtiyojlarini ifodalaydi. Shu bois nutq rivoji bolaning bilish faoliyatini shakllantiruvchi asosiy psixologik vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, grammatik jihatdan shakllangan nutq bolaning mantiqiy fikrlashi, izchil bayon qila olish qobiliyati hamda kommunikativ kompetensiyasining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

3–4 yosh davri bolaning grammatik tizimni faol o'zlashtirish bosqichi sifatida tavsiflanadi. Ushbu davrda bola nafaqat yangi so'zlarni egallaydi, balki ularni grammatik jihatdan o'zaro bog'lash, gap tarkibida moslashtirish va turli sintaktik konstruksiyalarni qo'llashni ham boshlaydi. Bu esa bolaning lingvistik tafakkuri rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, egalik qo'shimchalari, kelishik shakllari, ko'plik kategoriyalari va fe'l zamonlarini qo'llash jarayoni ushbu yosh bosqichida sezilarli darajada faollashadi. Biroq grammatik tizimning hali to'liq shakllanmaganligi sababli bolalar nutqida grammatik xatolar, sintaktik noaniqliklar va morfologik deformatsiyalar ham uchraydi. Mazkur holat bolaning grammatik tizimni faol ravishda o'zlashtirish jarayonida ekanligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda bolalar nutqining rivojlanishini psixolingvistik yondashuv asosida o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki psixolingvistika til va tafakkur o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, bolaning grammatik nutqi biologik yetilish, psixik rivojlanish, kommunikativ ehtiyoj va ijtimoiy muhitning o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadi. Shu sababli grammatik kompetensiyaning rivojlanishini faqat lingvistik hodisa sifatida emas, balki murakkab psixologik va ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda grammatik nutqni rivojlantirish muammosi bugungi kunda pedagogik amaliyot uchun ham dolzarb hisoblanadi. Chunki ayrim hollarda bolalarning jonli kommunikativ faoliyatining kamayishi, raqamli qurilmalardan haddan tashqari foydalanish, oilaviy muloqotning yetarli emasligi hamda nutqiy muhitning kambag'alligi grammatik rivojlanish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ayrim bolalarda so'zlarni grammatik jihatdan moslashtirish, gaplarni izchil tuzish va ravon nutqni shakllantirish bilan bog'liq muammolar kuzatilmoqda. Bu esa maktabgacha ta'lim tizimida grammatik nutqni rivojlantirishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Shuningdek, bolaning grammatik kompetensiyasini shakllantirishda oilaviy muhit, pedagogning nutq madaniyati va kommunikativ yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Boy nutqiy muhitda tarbiyalanayotgan bolalarda grammatik konstruksiyalarni egallash jarayoni tezroq va samaraliroq kechadi. Ayniqsa, ertaklar, dialogik suhbatlar, syujetli-rolli o'yinlar va obrazli tafakkurni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar grammatik nutqni shakllantirishning samarali vositalari sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi aynan 3–4 yoshli bolalarda grammatik nutqning shakllanish mexanizmlarini psixolingvistik nuqtayi nazardan chuqur o'rganish, mavjud ilmiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish hamda grammatik kompetensiyani rivojlantirishning samarali pedagogik imkoniyatlarini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Chunki grammatik jihatdan rivojlangan nutq bolaning keyingi ta'lim bosqichlaridagi o'quv faoliyati, muloqot madaniyati va intellektual taraqqiyotining muhim po'ydevori hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda psixolingvistika, maktabgacha pedagogika, bolalar psixologiyasi hamda nutqni rivojlantirish metodikasi fanlarining nazariy-metodologik tamoyillariga tayanildi. Tadqiqot jarayonida 3–4 yoshli bolalarda grammatik nutqning shakllanish xususiyatlarini aniqlash, grammatik kompetensiyaning rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonga ta'sir etuvchi psixologik va pedagogik omillarni o'rganishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, integrativ va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi. Tizimli yondashuv asosida bolaning grammatik nutqi yaxlit psixolingvistik tizim sifatida o'rganilib, undagi fonetik, leksik, morfologik va sintaktik komponentlarning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Integrativ yondashuv orqali grammatik nutq rivojining psixologik, lingvistik va kommunikativ jihatlari o'zaro uyg'unlikda o'rganildi. Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv esa bolaning nutqiy faoliyati, kommunikativ ehtiyoji va ijtimoiy muloqoti asosida grammatik kompetensiyaning shakllanish mexanizmlarini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Grammatik nutqning shakllanishiga oid ilmiy manbalar qiyosiy jihatdan o'rganilib, turli metodik yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, grammatik kompetensiyaning rivojlanish



bosqichlari va yosh xususiyatlari tizimli ravishda umumlashtirildi. Empirik tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, nutqiy faoliyat monitoringi hamda pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodlari orqali bolalarning kundalik muloqot jarayonidagi grammatik nutq xususiyatlari, gap tuzish ko'nikmalari va grammatik birliklardan foydalanish holatlari tahlil qilindi. Suhbat metodlari yordamida bolalarning dialogik nutqi, savol-javob jarayonidagi grammatik faolligi va kommunikativ reaksiyalari o'rganildi.

Pedagogik diagnostika jarayonida bolalarning grammatik kompetensiyasini aniqlash uchun maxsus nutqiy topshiriqlar va kommunikativ vaziyatlardan foydalanildi. Jumladan, predmetli rasmlar asosida gap tuzish, harakatlarni ifodalovchi fe'llardan foydalanish, egalik va kelishik qo'shimchalarini qo'llash hamda sodda sintaktik konstruksiyalarni shakllantirish holatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida bolalarning grammatik nutqida uchraydigan morfologik va sintaktik xatolar ham monitoring qililib, ularning psixolingvistik sabablari o'rganildi. Metodologik jihatdan tadqiqotda kommunikativ-faoliyatli yondashuvga ham alohida e'tibor qaratildi. Ushbu yondashuv asosida grammatik nutq bolaning real kommunikativ faoliyati bilan bog'liq holda o'rganildi. Shu maqsadda syujetli-rolli o'yinlar, dialogik mashg'ulotlar, drammatizatsiya elementlari va interaktiv nutqiy vaziyatlardan foydalanildi. Mazkur metodlar bolaning tabiiy nutqiy faolligini kuzatish va grammatik birliklardan foydalanish darajasini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda multisensor metodlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi ham o'rganildi. Eshitish, ko'rish va harakat analizatorlarining uyg'un faoliyati asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning grammatik kompetensiyani rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. Xususan, audiovizual materiallar, predmetli ko'rgazmalar, didaktik o'yinlar va obrazli nutqiy mashqlarning bolalar grammatik tafakkuriga ta'siri monitoring qilindi.

Shuningdek, tadqiqot davomida bolaning grammatik nutqiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillar ham tahlil qilindi. Oilaviy kommunikativ muhit, pedagogning nutq madaniyati, tengdoshlar bilan muloqot va ta'limiy muhitning grammatik kompetensiya rivojiga ta'siri kompleks tarzda o'rganildi. Bunda bolaning erkin kommunikativ faoliyatga jalb etilishi, mustaqil fikr bildirishga imkon yaratilishi hamda boy nutqiy muhitning tashkil etilishi asosiy metodologik mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil qililib, umumlashtirish va interpretatsiya metodlari asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi. Natijalarni tahlil qilishda grammatik kompetensiyaning yoshga xos rivojlanish dinamikasi, kommunikativ faollik darajasi va grammatik birliklardan foydalanish ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

3-4 yosh bolaning faol nutqiy rivojlanish davri hisoblanadi. Ushbu davrda bola lug'at boyligini faol ravishda kengaytiradi, so'zlarni grammatik jihatdan moslashtira boshlaydi hamda sodda sintaktik konstruksiyalardan murakkabroq gap tuzilmalariga o'tadi. Grammatik tuzilma nutqning mazmuniy yaxlitligi va mantiqiyiligini ta'minlovchi asosiy til tizimi bo'lib, bolaning tafakkur rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Grammatik kompetensiyaning rivojlanishi bolaning intellektual faoliyati, semantik tafakkuri, eshituv idroki va kommunikativ ehtiyojining rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Psixolingvistika fanida bolaning grammatik nutqi til va tafakkur integratsiyasi asosida izohlanadi.

Jean Piaget bolaning grammatik tafakkurini uning kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq holda tahlil qilib, grammatik birliklarning shakllanishi tafakkur operatsiyalarining rivojlanishi asosida yuzaga kelishini ta'kidlaydi^[1]. Olimning fikricha, bola dastlab predmet va hodisalarni konkret tasavvur qiladi, keyinchalik esa ularning o'zaro munosabatlarini grammatik vositalar yordamida ifodalashni o'rganadi. Piaget nazariyasi grammatik rivojlanishni bolaning intellektual faoliyati bilan bog'lashga xizmat qilgan bo'lsa-da, unda kommunikativ muhitning roli yetarli darajada ochib berilmagan.

Lev Vygotskiy esa bolaning nutqiy rivojlanishini ijtimoiy-kommunikativ faoliyat mahsuli sifatida baholaydi. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga ko'ra, bola grammatik birliklarni kattalar bilan muloqot va hamkorlik jarayonida o'zlashtiradi^[2].

Vygotskiy grammatik kompetensiyaning rivojlanishini bolaning kommunikativ ehtiyoji bilan bog'lab, ijtimoiy muhit va pedagogik qo'llab-quvvatlashning muhim rol o'ynashini asoslaydi. Ushbu nazariya bugungi kunda maktabgacha ta'lim metodikasida keng qo'llanilib, dialogik muloqot va interaktiv pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Jerome Bruner bolaning grammatik nutqini rivojlantirishda kommunikativ muhitning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. Olim "Language Acquisition Support System" nazariyasida bolaning grammatik kompetensiyasi kattalar tomonidan yaratilgan nutqiy qo'llab-quvvatlovchi muhit orqali shakllanishini asoslaydi^[3].

Brunerning tadqiqotlari, ayniqsa, ertak o'qish, savol-javob, kundalik dialoglar va o'yin faoliyatining grammatik rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan yoritadi.

Noam Chomsky esa universal grammatika nazariyasi orqali bolaning grammatik qobiliyatini biologik tug'ma mexanizm sifatida talqin qiladi^[4]. Uning fikricha, inson miyasi grammatik tizimni egallash uchun tabiiy imkoni-

yatlarga ega bo'lib, til rivoji biologik dasturlangan mexanizmlar asosida yuzaga keladi. Biroq mazkur nazariya ijtimoiy va kommunikativ omillarning rolini yetarli darajada hisobga olmagan sababli psixolingvistlar tomonidan biryozlama yondashuv sifatida baholangan.

Psixolingvist Aleksey Leontyev bolaning nutqiy faoliyatini insonning motivatsion va kommunikativ ehtiyojlari bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Olimning fikricha, bola grammatik birliklarni sun'iy mashqlar orqali emas, balki tabiiy kommunikativ ehtiyoj asosida samaraliroq o'zlashtiradi ^[5]. Shu sababli bolaning grammatik nutqini rivojlantirish uchun boy kommunikativ muhit yaratish muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda grammatik nutqning shakllanishi murakkab psixik va lingvistik jarayon sifatida kechadi. Ushbu davrda bolaning lug'at boyligi sezilarli darajada ortadi. Tadqiqotchilar fikricha, 3 yoshli bolaning faol lug'ati o'rtacha 1000 dan ortiq so'zni tashkil etsa, 4 yoshga kelib ushbu ko'rsatkich ikki baravarga yaqinlashadi ^[6].

Lug'at boyligining ortishi grammatik konstruksiyalarni shakllantirish uchun muhim psixolingvistik asos yaratadi. Bola dastlab ikki yoki uch so'zli sodda gaplardan foydalanadi, keyinchalik esa aniqlovchi, hol va to'ldiruvchi qatnashgan kengaygan gap tuzilmalarini qo'llay boshlaydi.

Ushbu yosh bosqichida bolalar nutqida grammatik xatolar ham faol kuzatiladi. Masalan, qo'shimchalarning noto'g'ri qo'llanilishi, zamon kategoriyalarining chalkashishi yoki sintaktik moslashuvlarning buzilishi kabi holatlar uchraydi. Biroq bunday xatolar bolaning grammatik tizimni faol ravishda egallayotganligini ko'rsatadi. Chunki grammatik kompetensiya bosqichma-bosqich shakllanadigan murakkab psixolingvistik tizim hisoblanadi. Fonematik eshituv va verbal xotira grammatik nutq rivojining muhim psixolingvistik omillari sifatida namoyon bo'ladi. Bola grammatik birliklarni avvalo eshituv orqali qabul qiladi va keyinchalik ularni nutqiy faoliyatda qo'llaydi. Shu sababli boy nutqiy muhit bolaning grammatik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ertak tinglash, she'r yodlash, dialogik mashqlar va obrazli tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlar verbal xotirani faollashtirib, grammatik konstruksiyalarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Oilaviy kommunikativ muhit ham bolaning grammatik nutqi rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning ravon, grammatik jihatdan to'g'ri va boy nutqi bolaning til kompetensiyasini rivojlantiradi. Aksincha, kommunikativ faoliyatning yetarli emasligi yoki noto'g'ri nutqiy namunalarning ko'pligi bolaning grammatik rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois oilada kitob o'qish, ertak aytish, savol-javoblar tashkil etish va bolaning mustaqil fikr bildirishiga imkon yaratish grammatik nutqni shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida grammatik nutqni rivojlantirish uchun interaktiv pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar, drammatizatsiya, didaktik mashqlar va multisensor metodlar grammatik kompetensiyani rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Syujetli-rolli o'yinlar jarayonida bola real kommunikativ vaziyatlarni modellashtiradi va grammatik birliklardan tabiiy ravishda foydalanadi. Masalan, "Do'kon", "Shifokor", "Bog'cha", "Mehmon kutish" kabi o'yinlar bolaning grammatik tafakkuri va dialogik nutqini rivojlantiradi. Drammatizatsiya mashg'ulotlari ham grammatik nutqni shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Chunki bunday mashg'ulotlarda bola tayyor grammatik konstruksiyalarni eshitadi, takrorlaydi va mustaqil ravishda qo'llashga harakat qiladi. Shu bilan birga, multisensor metodlar eshitish, ko'rish va harakat analizatorlarini bir vaqtning o'zida faollashtirib, grammatik birliklarning samarali o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Bugungi globallashtirish va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda bolalarning nutqiy muhiti ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Multimedia vositalari, mobil qurilmalar va virtual kommunikatsiyaning kengayishi bolalar nutqiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, vizual va eshituv idroki boyimoqda, ikkinchi tomondan esa jonli muloqotning kamayishi grammatik nutq rivojida ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni an'anaviy kommunikativ metodlar bilan uyg'unlashtirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 3-4 yoshli bolalarda grammatik nutqning shakllanishi murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, bolaning tafakkuri, verbal xotirasi, kommunikativ ehtiyoji, fonematik eshituv qobiliyati va ijtimoiy muhiti bilan uzviy bog'liqdir. Grammatik kompetensiya biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning integratsiyasi asosida rivojlanadi. Ayniqsa, boy nutqiy muhit, dialogik muloqot, o'yin faoliyati va pedagogik qo'llab-quvvatlash bolaning grammatik jihatdan to'g'ri va ravon nutqini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, zamonaviy psixolingvistik yondashuv asosida tashkil etilgan maktabgacha ta'lim jarayoni bolalarda grammatik tafakkur, kommunikativ kompetensiya va ravon nutqni samarali rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida grammatik nutqni rivojlantirish metodikasini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.



XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 3–4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish murakkab va ko'p omilli psixolingvistik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon bolaning tafakkuri, verbal xotirasi, eshituv idroki, kommunikativ ehtiyoji va ijtimoiy muhitining o'zaro integratsiyasi asosida rivojlanadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida grammatik kompetensiyaning shakllanishi bolaning keyingi intellektual, kommunikativ va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Tahlillar asosida aniqlandiki, grammatik nutqning rivojlanishi bolaning lug'at boyligi ortishi bilan chambarchas bog'liq holda kechadi. Bola til birliklarini faol o'zlashtirar ekan, so'zlarni grammatik jihatdan moslashtirish, sodda va kengaygan gaplar tuzish hamda turli sintaktik konstruksiyalardan foydalanish ko'nikmalarini egallay boshlaydi. Shu bilan birga, ushbu yosh bosqichida kuzatiladigan grammatik xatolar va sintaktik noaniqliklar bolaning grammatik tizimni faol ravishda shakllantirayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida boy kommunikativ muhit, dialogik muloqot, syujetli-rolli o'yinlar, drammatizatsiya va multisensor metodlarning grammatik kompetensiyani rivojlantirishdagi pedagogik samaradorligi tasdiqlandi. Ayniqsa, tabiiy muloqotga asoslangan interaktiv mashg'ulotlar bolalarda grammatik birliklardan ongli va faol foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi aniqlandi.

Shuningdek, oilaviy nutq muhiti va pedagogning nutq madaniyati bolaning grammatik jihatdan to'g'ri va ravon nutqini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Tahlillar natijasida grammatik nutqni rivojlantirish jarayonida bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish zarurligi aniqlandi. Chunki har bir bolaning nutqiy rivojlanish sur'ati, kommunikativ faolligi va grammatik birliklarni o'zlashtirish darajasi individual xarakterga ega bo'ladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim jarayonida differensial va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish grammatik kompetensiyaning samarali shakllanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bolalar nutqiga ta'siri ham muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot davomida jonli kommunikativ faoliyatning yetarli darajada tashkil etilmasligi grammatik nutq rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida an'anaviy nutqiy muloqot metodlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, grammatik jihatdan rivojlangan nutq bolaning tafakkuri, kommunikativ kompetensiyasi va ijtimoiy moslashuvining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimida grammatik nutqni rivojlantirishning psixolingvistik asoslarini chuqur o'rganish, innovatsion metod va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish hamda boy nutqiy muhit yaratish dolzarb pedagogik vazifalardan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge, 1959. – P. 44.
2. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986. – P. 101.
3. Bruner J. Child's Talk: Learning to Use Language. – Oxford University Press, 1983. – P. 69.
4. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965. – P. 31.
5. Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 1999. – С. 92.
6. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2010. – B. 147.
7. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 400 b.
8. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 320 b.
9. Safarova R. Maktabgacha ta'lim psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 256 b.
10. Yo'ldoshev J. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. – 280 b.
11. Abdurahmonov G'. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Fan, 2013. – 248 b.
12. Bozhovich L.I. Lichnost i yeye formirovaniye v detskom vozraste. – Moskva: Prosvesheniye, 1968. – 464 s.
13. Luriya A.R. Yazik i soznaniye. – Moskva: MGU, 1979. – 320 s.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.